

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH SIFATINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

**Razakov Farxod Kuvandikovich**

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7343377>

*Аннотация.* Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida o'qitish sifatini oshirish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib xisoblanmoqda, shu xisobga olgan holda ta'lim jarayonida interfaol metodlarning keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol metodlardan darslar samaradorligining asosi hisoblanadi. O'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi faollikni faollashtirish orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Калит со'злар:** o'qitishning interfaol usullari, o'qitish texnologiyasi.

## ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ В ВУЗЕ

*Аннотация.* В настоящее время мы не можем представить свою жизнь без Интернета и социальных сетей, с помощью которых мы можем быстро и удобно получать и передавать информацию, но неправильное ее использование вызывает серьезные изменения в психике подростков, что остается одной из основных проблем общества. В данной статье влияние Интернета и социальных сетей на психику молодежи в условиях глобализации, а также формирование и последствия девиантного поведения у подростков в результате этого.

**Ключевые слова:** Интернет, подростки, девиантное поведение, психические, психологические факторы, поведение, общение.

## THE SIGNIFICANCE OF INTERACTIVE METHODS IN IMPROVING THE QUALITY OF TEACHING IN UNIVERSITIES

*Abstract.* Nowadays, we cannot imagine our life without the Internet and social networks, through which we can receive and transmit information quickly and conveniently, but the misuse of it causes serious changes in the psyche of teenagers, which remains one of the main problems of society. In this article, the impact of the Internet and social networks on the psyche of young people in the process of globalization, and the formation and consequences of deviant behavior in teenagers as a result of it.

**Keywords:** Internet, teenagers, deviant behavior, mental, psychological factors, behavior, communication.

**Mavzuning dolzarbligi:** O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning inovatsion yo'nalishida shakllantirishi, jahon iqtisodiyotiga integrashuvi ta'lim tizimi oldinga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni tayorlash vazifasini qo'ydi. Raqobatdosh kadrlarni tayorlash esa faqatgina sifatli ta'lim muhitida amalga oshirilishi mumkin.

Hozirgi taraqqiyot bosqichi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning keng qo'llanilayotganligi bilan xarakterlanadi. Uzoq yillar foydalanilgan o'qitish texnologiyasidagi bir xillik, ta'lim jarayonida o'qituvchi gegemonligi, o'qituvchi tomonidan fanni tayyor, ortiqcha mushohada qilmasdan ham qabul qilinadigan darajaga keltirib o'quvchiga taqdim etishga urinish o'quvchilarning faolligini pasaytirib, ularda ijodiy fikrlash malakasi shakllanishiga to'sqinlik qila boshlagan edi. Shuning uchun ham ta'lim

jarayoniga o'quvchini o'qitadigan emas, balki uni o'qishga, bilim olishga o'rgatadigan interfaol usullarni qo'llashga urinish kuchaydi.

Ta'limni tashkil etish va yo'lga qo'yish borasida ana shu xildagi o'zgartishlar keyingi yillarda dunyo miqyosida toboro keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarni yuzga keltirdi. Interfaol usullar erkin fikirlaydiga, mustaqil izlanadigan o'quvchilarni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Ta'lim berishning bu usulida o'qitish jarayonidagi asosiy ish o'quvchilar tomonidan amalga oshirilishi, ular ta'limning obyekti emas balki subyekti, yani xuddi o'qituvchi singari ijrochisi bo'lishi ko'zda tutiladi. Interfaol metodlar asosida o'qituvchi bilan o'quvchilarning birligidagi faolyatigina emas, balki ta'lim olayotgan har bir o'quvchi bilan boshqa o'quvchilarning o'zaro xamkorlikda didaktik faolyat ko'rsatishni ta'minlash g'oyasi yotadi. "Interaktiv" (Interfaol) atamasi lotincha "inter va akt" so'zi birikmasidan olingan bo'lib, "inter" – O'zaro, birgalikda va "akt" – faolyat ma'nolarini anglatadi (2) Demak o'qitishning interfaol faol usullari ta'lim mazmunlarini to'liq o'zlashtirishida o'quvchilarning o'zaro bir-birlari va o'qituvchilar bilan birgalikda faolyat ko'rsatishlarini tashkil etishni ko'zda tutadi. Bu o'qitishning interfaol usullari o'quvchilarning faolligi, erkin fikirlashi, mustaqil izlanishi, o'zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijobiy yondashishiga tayanadi. O'qitishning interfaol usullari ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchinig faolligiga asoslanadi Bu usullardan tog'ri foydalanilganda, bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli xayotiy xayotiy faolyatiga aylanadi. O'qitishning interfaol usullari qo'llanilganda, o'quvchilar o'qitilmaydi, balki ularning o'zlari o'qituvchi bilan birgalikda muayyam miqdordagi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishadi. Bu xol o'quvchilarda erkin fikirlash, mustaqil izlanishga rag'bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta'lim jarayoni qatnashchilari o'quv materialini buyurilganiday emas, balki o'zlari xohlaganday erkin o'zlashtiradilar. O'qitishning interfaol metodining o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda o'quvchilar yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtiradilar va ta'lim jarayoni ishtirokchilari, albatta, kichik guruxlarga bo'lingan holda ishlashadi. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruxning barcha a'zolariga berilishi oquvchilarga jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.

Ko'pchilik o'qituvchilar o'qitishning interfaol usullarini asosiy xususiyati ularning qiziqarliligida deb hisoblashadi va bu usullarni qo'llashda shu jihatga ko'proq urg'u berishadi. Chindan ham interfaol usullar o'quv mashg'ulotlarini qiziqarli qiladi. Lekin ta'lim jarayoni uchu qiziqarlilikning o'zi kifoya qilmaydi. Qiziqarlilik o'qit'shning interfaol usullarining bitta belgisi, xolos. Ta'kitlash kerakki, u asosiy belgi ham emas. Interfaol usullar, ta'limninh har qanday ilg'or metodlari kabi kamroq vaqt, kuch va resurs sarflash, ko'proq didaktik samaraga erishishga qaratilganligi bilam ahamiyatlidir.

O'qitishning interfaol usullari oz-oziga tasodifan paydo bo'lib qolgan emas. Unung XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kela boshlaganligi ham bejiz emas. Ta'limni interfaol usulda tashkil etish uchun insoniyat tafakkuri muayyam yuksaklikka ko'tarilishi, ilmu fannig taraqqiyoti o'zining avj nuqtasiga etishi kerak edi. Eng muxim, insonning ehtiyoj yuzaga kelishi lozim edi.

Transaksiya o'qitishning interfaol usullarining yuzaga kelishi uchun shunday pedagogik falsafa bo'lib xizmat qiladi. Bu pedadogik falsafa oquvchilar ta'limning ishtirokchilari emas, balki ijtirokchilari bo'lishi va bu jarayonni o'zlari o'zaro hamkorlida amalga oshirishlari kerakligini ko'zda tutardi. XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan konstruktivizm deb atalmish pedagogika falsafiy yo'nalish bevosita interfaolusullarni yuzaga kelishiga ilmiy-nazariy asos bo'ladi.

Konstruktivizm keyingi yarim asr davomida jahon pedagogika ilmidagi ha nazariy qarash ham amaliy yo'nalish sifatida keng yoyilgan. Bu ilmiy dunyoqarashning nomi lotincha "constructio" – "qurulma", "qurilish" so'zlaridan olingan bo'lib, unga ko'ra ta'lim o'quvchilarning faoliyatlari natijasida bilimlar konstruksiya qilinadigan, yani muayyam qurulma holiga keltiriladigan jarayondir.

Insoniyat paydo bo'lgandan beri davom etib kelayotgan pedagogik amaliyot birov birovni o'qita olmasligini ko'rsatdi.

O'qitish jarayoniga interfaol usullarni qo'llash o'qituvchining mavqeyi va vazifasini bir muncha o'zgartiradi. Interfaol usul tatbiq etilganda, ta'lim jarayoni faqat o'qitishdan emas, balki birvarakayiga ham o'qitish, ham o'qitishdan iborat bo'ladi. Shu sababli ham muallim shunchaki dars beruvchi emas, balki o'quvchilar tatqiqotchilar faoliyatini tashkil etuvchi, muofiqlashtiruvchi va maslaxatchiga aylanadi. O'qituvchi o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyati uchun sharoit yaratadi va ularda tashabbus uyg'otishga etibor qaratadi. Interfaol usulda o'quvchi ta'lim jarayonining to'la qonli ijrojiga aylanib, erishiladigan didaktik natija uchun o'qituvchi bilan baravar javobgarlik his qiladi.

O'qitish jarayonida interfaol usullar qo'llanganda, o'qituvchi o'quvchilar oldiga xayotiy muammolarni qo'yishi, o'quv topshirig'i sifatida hayotda ko'p uchraydigan va manbalardan topish mumkin bo'lgan masalalarni berish lozim. O'quv topshiriqlarni o'quvchilarning o'zlari tanlasalar, yanada yaxshi bo'ladi. O'quvchilar echiqlari lozim bo'lgan pedagogik muammo sun'iy o'ylab topilmasligi hamda izlanishiga arzimaydigan darajada kichik va nomuhim bo'lmasligi kerak.

Mashg'ulotlarga o'qitishning interfaol usullar qo'llayotgan o'qituvchi o'quvchilar biror topshiriq berayotganda ularni faoliyatga undaydigan so'zlardan foydalangani maqul. Interfaol usullarning nazaryotchilarning ta'lim jarayonida tasniflang, asoslang, tadqiq eting, umumlashtiring, tahlil qiling, andaza bering (modellashtiring), tashxis qo'ying, baho bering kabi undovchi so'lar qo'proq qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'linishi ta'kidlashadi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari oldiga aniq vazifalar qo'yish o'quvchilarga faoliyat ko'rsatish va izlanishga yo'naltiradi.

O'qish va o'qitish amaliyotida interfaol usullardan foydalanayotgan o'qituvchi turli turli nuqtayi nazarlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish orqali o'quvchilar tanqidiy tafakkur shakillanishiga sharoit yaratishi kerak. Shunday qilsa, o'quvchilarda o'z qarashlarini himoya qilish ehtiyoji paydo bo'ladi va bu o'ziga maqul bo'lmagan fikriga tezda qarshi dalillar keltirish, boshqalarning qarashlaridagi ojiz joylarini darrov topib olish ko'nikmasini yuzaga keltirdi.

O'qitishning interfaol usullaridan foydalanganda o'qituvchi o'quvchilarning savollarini alohida qarashlari lozim bo'ladi. Chunki savol berish xamisha aqliy zo'rishish, fikriy ishlash, aqliy faoliyat ko'rsatish demaktir. O'qituvchi o'quvchilar bergan mazmun-ma'noli savollarini qadrlashi bitta jo'yali savolni o'ylab to'g'ri, ammo jo' javoblardan ustun qo'ya bilishi lozim. Chunki savol o'quvchi tafakkurida izlanish borayotganligini anglatadi. Berilgan javob esa izlanish to'xtaganidan dalolatdir. Savol berga o'quvchilar rag'batlantirib borilsa, ular chuqur va kerakli savollar berish ko'nikmasi shakillanadi.

O'qitishning interfaol usullarida o'qituvchi o'quvchilarning qo'yilgan o'quv muammosi yuzasidan tez, ammo chuqur o'ylashga yo'naltirish lozim. Aks xolda, o'quvchilar yuk

bosmaydigan engil-elpi, xayoliga kelgan tasodifiy javoblarni aytishga o'rganib qolishlari mumkin.

O'qituvchi ta'lim jarayonini o'quvchilarning hamkorlikda ishlashlari asosida tashkil etmoqchi bo'ganda, ularning tabiatdagi qiziquvchanlik xususiyatidan foydalanishi, o'qish va o'qitish jarayonida evristik va tadqiqot usullarini ko'proq qo'llashi maqsadga muvofiq. Ta'lim interfaol usullardan uyushtirilganda, "izlanish- faraz-echim topish –izohlash- yangi izlanish" tarzidagi didaktik sikl yuzaga keltirilsa, o'quvchilarning ham bilim olish, hamda shaxs sifatida shaklanishlari ta'lim etiladi. Bu sikl o'quvchilar oldilariga qo'yilgan muammo yuzasidan izlashtirishlari izlanish natijasida mantiqiy faraz yuzaga chiqishi, farazni asoslashga urinish muayyam echimga olib kelishi, o'quvchilar guruhi tomonidan topilgan echim guruh vakili tomonidan izohlanishi, ilmiy izoh keyingi ta'limiy izlanishlarni keltirib chiqarishini ifoda qiladi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan: Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish. Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish. Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular

o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash. Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash. Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash. Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda umumta'lim maktablarida o'qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning bilimligini mustaqil o'zlashtirib, ularni ko'nikma va malakalar holiga keltirishni tezlashtiradi. Eng muhimi, interfaol usullar maktab o'quvchilarining ma'naviyati shakillanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadiki, bu o'quvchi yoshlarni shaxsiyatining barkamolligiga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – T. 2. – №. 12. – С. 4-7.
2. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
3. Саидов А. pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
4. Sharifjon To'lqin o'g A. et al. TA'LIM-TARBIYA TIZIMI VA O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 57-60.
5. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.
6. Саидов А., Джураев Р. Воспитание гармоничного поколения–роль спорта в формировании здорового образа жизни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.

7. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – T. 12. – №. 4. – C. 628-630.
8. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 313-318.
9. Ismoilovich, S. A. SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF THE FORMATION OF THE PSYCHOLOGY OF A HEALTHY LIFESTYLE OF FAMILIES.
10. Azamat, S. (2022). On The Basis Of National Values To Raise A Healthy Generation In The Family. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2417-2420.
11. Saidov A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 867-871.
12. Axmedov A. OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR ONGIGA SALBIY TA’SIRI VA UNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 1115-1118.
13. Axmedov, A. (2022). The negative effect of internet gambling on youth psychology. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 76-79
14. Diyorugli, A. A. (2022). The negative effect of public culture on youth consciousness and its social psychological features. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 289-291.
15. Ugli, Akhmedov A. D., et al. "Depressive Behavior in Sports Competitions and Their Characteristics of Will-sustainability." *JournalNX*, vol. 6, no. 04, 2020,pp. 50-53